



UDK:796.015.68:4:132

Xalilillo QAYUMOV,

Katta o'qituvchi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

E-mail: qayumovxalil167@gmail.com

Oriental universiteti professori, PhD K.Murodov taqrizi asosida

**AYOLLAR KURASHI SPORT TURI BO‘YICHA QIRG‘IZISTONNING BISHKEK SHAHRIDA O‘TKAZILGAN
OSIYO CHEMPIONATINING TAHLILI**

Аннотация

Ushbu maqolada yilining eng nufuzli musoboqasi ayollar kurashi bo'yicha Qirg'izistonning Bishkek shahrida o'tkazilgan Osiyo chempionatining natijalari taxlil qilingan. Ayollar kurashi vazn toifalarida yangi chempionlarning muvaffaqiyatlari va amaldagi chempionlarning muvaffaqiyatsizliklari haqida so'z boradi. Bundan asosiy ko'zlangan maqsad kelgusi musoboqalarga puxta tayyorgarlik ko'rish va g'alabaga erishgan sportchilarni mashg'ulot hamda tayyorgarlik jarayonlari bilan tanishib borish orqali ularga kelgusida Jaxon chempionati va Olimpia o'yinlariga munosib qarshilik ko'rsatish.

Kalit so'zlar: Natijalar, Osiyo chempionati, g'alaba, mag'lubiyat, taxlil, murabbiy, musobaqa faoliyati.

**АНАЛИЗ ЧЕМПИОНАТА АЗИИ ПО ЖЕНСКОЙ БОРЬБЕ, ПРОВЕДЁННОГО В ГОРОДЕ БИШКЕК,
КЫРГЫЗСТАН.**

Аннотация

В данной статье проанализированы результаты самого престижного соревнования года — чемпионата Азии по женской борьбе, проведённого в городе Бишкек, Кыргызстан. Рассматриваются успехи новых чемпионки в различных весовых категориях, а также неудачи действующих чемпионки. Основной целью является обеспечение тщательной подготовки к предстоящим соревнованиям, а также изучение тренировочного и подготовительного процесса победивших спортсменок для того, чтобы в будущем оказать достойное сопротивление на чемпионате мира и Олимпийских играх.

Ключевые слова: Результаты, Чемпионат Азии, победа, поражение, анализ, тренер, соревновательная деятельность.

**ANALYSIS OF THE ASIAN CHAMPIONSHIP IN WOMEN'S WRESTLING HELD IN THE CITY OF BISHKEK,
KYRGYZSTAN.**

Annotation

This article analyzes the results of the most prestigious competition of the year — the Asian Championship in women's wrestling held in the city of Bishkek, Kyrgyzstan. It discusses the successes of new champions in different weight categories of women's wrestling, as well as the failures of reigning champions. The main objective is to ensure thorough preparation for upcoming competitions and, by studying the training and preparation processes of victorious athletes, to enable them to competently compete in future World Championships and the Olympic Games.

Keywords: Results, Asian Championship, victory, defeat, analysis, coach, competition activity.

Kirish. Hozirgi kunda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga doir bir qancha Qaror va Farmonlarni imzoladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 25-mart Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida qonuni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-sonli "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2022-yil 29-iyuldagi PQ-336-son Sport kurashlarining olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida, 2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo'lib o'tadigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida Olimpiya va paralimpiya sport turlarini rivojlantirish orqali nufuzli xalqaro sport musobaqalari, shu jumladan, 2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo'lib o'tadigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o'yinlarida (keyingi o'rinlarda - Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari) sportchilarimizning har tomonlama muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash maqsadida qarorlari va bir qancha qonun hujjatlarini aytib o'tish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda ayollar kurashi sport turining rivojlanishi, uning xalqaro musobaqalardagi o'rnini hamda sportchilarning texnik-taktik

tayyorgarligini oshirish masalalari ilmiy adabiyotlarda keng yoritilmoqda. Xususan, Osiyo chempionatlari doirasida ayollar kurashining rivojlanish tendensiyalari bir qator olimlar tomonidan tahlil qilingan. Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar (S.Adilov, S.Ismatullayeva, Sidorov, Takahashi va boshqalar) o'z ishlarida ayollar kurashida muvaffaqiyatga erishish ko'p jihatdan maxsus jismoniy tayyorgarlik, tezkor-kuch sifatleri hamda texnik-taktik harakatlarning mukammalligiga bog'liqligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, xalqaro sport federatsiyalari (UWW – United World Wrestling) tomonidan e'lon qilingan statistik ma'lumotlarda ayollar kurashida Osiyo davlatlari, xususan O'zbekiston, Yaponiya, Qirg'iziston va Qozog'iston vakillarining yuqori natijalari qayd etilgan. Bu esa mintaqada ayollar kurashining jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi. Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalar ayollar kurashida natijadorlikni oshirish uchun maxsus tayyorgarlik metodikalarini takomillashtirish zarurligini tasdiqlaydi va ushbu maqola mavzusining dolzarbligini asoslaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekistonning davlat siyosatida mamlakatda jismoniy tarbiya va sportning yanada rivojlanishi, sog'lom avlodni tarbiyalash ustuvor yo'nalishga aylandi. Xalqaro sport tashkilotlarining gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan siyosati, Olimpiya o'yinlarida ayollar

kurashining doimiy sport turi sifatida mustahkamlanishi hamda qit'a va jahon chempionatlarining muntazam o'tkazilishi ushbu sport turining xalqaro miqyosda tobora keng ommalashib borayotganidan dalolat beradi.

Zamonaviy sport inshootlari barpo etilib, ular eng so'nggi texnologiyalar va qulayliklar bilan jihazlanmoqda. Turli darajadagi - mahalliy, hududiy, milliy va xalqaro miqyosdagi musobaqalar hamda nufuzli turnirlar muntazam ravishda yuqori saviyada tashkil etilmoqda va ularda yosh-u qari, professional sportchilar hamda havaskorlar faol ishtirok etmoqda. Bunday keng qamrovli e'tibor va yaratilayotgan shart-sharoitlar natijasida sportchilarimiz xalqaro maydonlarda munosib ishtirok etib, yuksak natijalarni qo'lga kiritib, yurtimiz sharafini munosib himoya qilmoqda. Soha rivojlanishining huquqiy bazasi yaratildi. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, sport kurashlari va boshqa sport turlarini rivojlantirish to'g'risidagi hukumat qarorlari shular jumlasidandir.

Tahlil va natijalar. Qirg'izistonning Bishkek shahrida 6-apreldan 12-aprelgacha sport kurashlari bo'yicha o'tkazilgan 1-jadval

Ayollar kurashi bo'yicha Qirg'izistonning Bishkek shahrida o'tkazilgan Osiyo chempionatining natijalari

Vazn Toifalari	Oltin	Kumush	Bronza
-50 Kg	Yui Susaki (Yaponiya)	Son Hyang Kim (Shimoliy Koreya)	Aktenge Keunimjaeva (O'zbekiston)
			Ziqi Feng (Xitoy)
-53 Kg	Jin Zhang (Xitoy)	Meenakshi Meenakshi (Hindiston)	Moe Kiyooka (Yaponiya)
			Sakibjamal Esbosynova (O'zbekiston)
-55 Kg	Sowaka Uchida (Yaponiya)	Yuxuan Li (Xitoy)	Ariunzaya Odonchimeg (Mo'g'uliston)
			Hansika Lamba (Hindiston)
-57 Kg	Kexin Hong (Xitoy)	Khulan Batkhuyag (Mo'g'uliston)	Youngjin Kwon (Janubiy Koreya)
			Sara Natami (Yaponiya)
-59 Kg	Mengyu Xie (Xitoy)	Sena Nagamoto (Yaponiya)	Neha Neha (Hindiston)
			Ulmeken Esenbaeva (O'zbekiston)
-62 Kg	Nonoka Ozaki (Yaponiya)	Hyon Gyong Mun (Shimoliy Koreya)	Qi Zhang (Xitoy)
			Tserenchimed Sukhee (Mo'g'uliston)
-62 Kg	Lili Lili (Xitoy)	Nana Ikehata (Yaponiya)	Gulnura Tashtanbekova (Qirg'iziston)
			Monika Monika (Hindiston)
-68 Kg	Meerim Zhumanazarova (Qirg'iziston)	Miwa Morikawa (Yaponiya)	Zelu Li (Xitoy)
			Delgermaa Enkhsaikhan (Mo'g'uliston)
-72 Kg	Jia Long (Xitoy)	Mahiro Yoshitake (Yaponiya)	Harishta Harishta (Hindiston)
			Nurzat Nurtaeva (Qirg'iziston)
-76 Kg	Davaanasan Enkh Amar (Mo'g'uliston)	Aiperi Medet Kyzzy (Qirg'iziston)	Gulmaral Yerkebayeva (Qozog'iston)
			Wenji Li (Xitoy)

Hamyurtimiz Aktenge Keunimjaeva musobaqani juda a'lo darajada boshladi o'tish bahslarida (Kor) Miran Cheon Ustidan ishonchli tarzda g'alaba qozongan bo'lsa 1/2 final bahsida esa (Prk) Son Hyang Kinga mag'lub bo'ldi. 3/5 final bahsida (Sri) Nipuni Wasana Darmadasa Hewa Pedige ustidan g'alabaga erishdi, shu tariqa ayollar kurashi sport turi bo'yicha osiyo chempionatining -50kg vazn toifasida Aktenge Keunimjaeva bronza medaliga sazovor bo'ldi.

Sakibjamal Esbosynova o'tish bahsida (TPE) Ya Hsin Chen bilan kurash olib bordi va g'alabaga erishdi, 1/4 final bahsida (IND) Meenakshi Meenakshi bilan bahs olib borib mag'lub bo'ldi. 3/5 final bahsida Kor Seoyoung Park bilan bahs olib bordi va raqibdan ustun keldi. shu tariqa ayollar kurashi

sport turi bo'yicha osiyo chempionatining -53kg vazn toifasida Sakibjamal Esbosynova bronza medaliga sazovor bo'ldi.

-55 kg Dilshoda Matnazarova 1/4 final bahsida (MGL) kurashchi Ariunzaya Odonchimegga imkoniyatini boy berdi va osiyo chempionatidagi yurishlarini to'xtatti.

-57 kg vazn toifasida yurtimiz sharafini ximoya qilgan Laylokhon Sobirova o'tish bahsida (JPN) Sara Natami qarshi bahs olib borib mag'lubiyatga uchradi.

-59 kg vaznda yurtimiz sharafini himoya qilgan Ulmeken Esenbaeva birinchi davra uchrashuvida (KOR) Hyebin Ahn bilan bahs olib bordi va g'alabaga erishdi. 1/2 final bahsida (JPN) Sena Nagamoto bilan bahs olib bordi va mag'lubiyatga uchradi. Yaponiyalik sportchi finalga qadar

yetib borganligi sababli hamyurtimiz bronza medali uchun kurashish imkoniyatini qolga kiritdi

3/5 o'tish bahslarida Ulmeken Esenbaeva (KGZ) Sezim Zhumanazarova bilan bahs olib bordi va g'alabaga erishdi, shu tariqa ayollar kurashi sport turi bo'yicha osiyo chempionatining -59kg vazn toifasida Ulmeken Esenbaeva bronza medaliga sazovor bo'ldi.

-62 kg vazn toifasida yurtimiz sharafigi ximoya qilgan Nigina Sobirova o'tish bahsida (JOR) Balqis Cail Taaibin qarshi bahs olib borib va g'alabaga erishdi Nigina Sobirova 1/2 final bahsida (JPN) Nonoka Ozaki mag'lubiyatga uchradi. Nigina Sobirova 3/5 o'tish bahslarida (CHN) - Qi Zhanga qarshi bahs olib borib mag'lubiyatga uchradi.

-65 kg vazn toifasida yurtimiz sharafigi ximoya qilgan yana bir sportchi qizimiz Firuza Esenbaeva 1/4 o'tish bahsida (MGL) Narkhajid Nyamsuren qarshi bahs olib borib va g'alabaga erishdi Firuza Esenbaeva 1/2 final bahsida (CHN) 2-jadval

Bishkek-2026 Osiyo chempionatida ayollar kurashi bo'yicha terma jamoalari quyidagicha o'rin egallashdi:

T/r	Jamoa	50kg	53kg	55kg	57kg	59kg	62kg	65kg	68kg	72kg	76kg	Jami
1	Xitoy	15	25	20	25	25	15	25	15	25	15	205
2	Yaponiya	25	15	25	15	20	25	20	20	20	6	191
3	Mangoliya	2	6	25	20	10	15	8	15	10	25	126
4	Qirg'iziston		10	10	6	10	4	15	25	15	20	115
5	Hindiston	6	20	15	10	15		15	6	15	8	110
6	O'zbekiston	15	15	8	2	15	10	10	2	10	4	91
7	Korea		10	10	15	8	6	10	4	6	10	79
8	Qozog'iston	10		6	8	6	10	6	10	8	15	79

Xulosa: qilib aytganda Yurtimizda ayollar kurashini yanada rivojlantirish uchun o'quv jarayonining ilmiy-uslubiy yondashuvini takomillashtirish zarurligini. Shuningdek olingan ma'lumotlar ayollar kurashchilarning tayyorgarlik metodikasini takomillashtirish, individual mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek mavjud tayyorgarlik yondashuvlari hamda jismoniy va maxsus tayyorgarlikni baholash usullarining samaradorligini tahlil qilishda foydalanilishi mumkin.

Lili Liliga mag'lubiyatga uchradi. Firuza Esenbaeva 3/5 o'tish bahslarida (KGZ) Gulnura Tashtanbekovaga qarshi bahs olib borib mag'lubiyatga uchradi.

-68 kg vazn toifasida yurtimiz sharafigi ximoya qilgan Svetlana Oknazarova o'tish bahsida (MGL) Delgermaa Enkhsaikhangaga qarshi bahs olib bordi va mag'lubiyatga uchradi.

-72 kg vazn toifasida yurtimiz sharafigi ximoya qilgan qizimiz Sevinchoy Polvonova o'tish bahsida (JPN) Mahiro Yoshitake qarshi bahs olib bordi va mag'lubiyatga uchradi. Mahiro Yoshitake final bahsiga chiqqanligi sababli Sevinchoy Polvonovaga o'zini ko'rsatishga yana bir imkoniyat berildi. Sevinchoy Polvonova 3/5 final bahsida IND - Harshita Harshitaga qarshi bahs olib borib mag'lubiyatga uchradi.

-76 kg vazn toifasida yurtimiz sharafigi ximoya qilgan Ozoda Zaripboyeva o'tish bahsida (TPE) Hui Tsz Changga qarshi bahs olib bordi va mag'lubiyatga uchradi.

Sport zahiralari tayyorlash tizimini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash zarurati kelib chiqadi. Sportchilarni individual xususiyatlarni hisobga olgan holda tayyorgarlik mikrosikllarini optimallashtirish musobaqalarda natijadorlikni oshirishga yordam beradi. Ayol kurashchilarni tayyorlash jarayonini optimallashtirish, sport faoliyatining samaradorligini oshirish hamda jaxon arenalarida yurtimiz bayrog'ini balandlarga ko'tarishga hizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. PQ-336-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sport kurashlarining olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. PQ-221-son 2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo'lib o'tadigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi "Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-201-son qarori bilan 2023-yil 1-martdan boshlab olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo'yicha uch bosqichli umumrespublika sport musobaqalarini o'tkazish tizimi joriy etish to'g'risida.
4. Olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha yuqori malakali hamda zamonaviy bilim va texnologiyalarni o'zlashtirgan trener, hakam, selesioner va boshqa mutaxassislarni tayyorlash maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi "Sport ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5279-son qarori.
5. Bakiyev Z.A. Kerimov F.A. Инновационные технологии в подготовке квалифицированных борцов на основе системного анализа деятельности спортсменов и тренеров с учетом уровня их спортивного мастерства // Шаг в науку // Материалы ИВ научно-практической конференции молодых ученых (ИИ всероссийской) г. Москва, 18 декабря 2020. – S. 328-334.
6. Adilov S.Q. Sport kurashida koordinasion qobiliyatlar va texnik-taktik tayyorgarliklarni maxsus mashqlar orqali takomillashtirishning samaradorligini oshirish // Fan-sportga ilmiy-nazariy jurnali 2022/5, Issn: 2181-7804 B. 10-12. [13.00.00 № 5].
7. Risbekovich A.T. effectiveness of using rotation exercises to develop endurance in wrestling sports Usmanova Iroda Zayniddin kizi, Shagiyev Ildus Ilyasovich, Qayumov Khalilillo Mavlon o'g'li
8. Adilov S.Q. Sport kurashida mashg'ulot jarayonini optimallashtirish // Nam-DU ilmiy axborotnomasi – 2022-yil 11-son. Issn: 2181-0427. B. 731-736. [13.00.00 № 11].
9. Adilov S.Q. Sport kurashida sportchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash texnologiyasi // Ta'limda innovasion tadqiqotlar 2023/10, Issn: 2181-1709 (P). B. 73-78. [13.00.00 № 10].
10. Ismatullayeva S. R. Fundamentals of increasing the efficiency of competition activity and developing technical and tactical training // Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2024. – T. 5. – №. 06. – C. 76-85.
11. Khalilillo Kayumov. Improving the effectiveness of the use of technical actions of athletes engaged in freestyle wrestling in counter-attack in competition activities // Mental enlightenment scientific – methodological journal. ISSN: 2181-1547, B.148-155.
12. Djumanov Shaxzod Mirzoxid o'g'li. Erkin kurash sport turi bo'yicha Xorvatiyaning Zagreb shahrida o'tkazilgan jaxon chempionatining tahlili // Ta'limda innovasion tadqiqotlar 2025/№ 9 Issn: 2181-1709 B.188-193.
13. Ismatullaeva S. Analysis of the asymmetry of technical and speed-strength training of female judokas on a special simulation simulator // Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2025. – T. 6. – №. 05. – C. 77-83.